



QADRYATLAR NAZARIYASINING SHAKLLANISH TARIXI

Mirzayeva Ruxshona Ravshanbek qizi

*Namangan davlat universiteti Fizika-
Matematika fakulteti 2-bosqich talabasi
ruxshonamirzayeva529@mail.com*

Ilmiy rahbar : Mirzaxolov Nodirbek Tojiboyevich

*Namangan davlat universiteti Ijtimoiy
fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi
nodirbek_mustafo@mail.ru*

***Annotatsiya.** Mazkur maqola qadriyatlar nazariyasining rivojlanish jarayonini va uning tarixiy shakllanish bosqichlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda qadriyat tushunchasining falsafiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarini, shuningdek, qadriyatlar nazariyasining ilmiy asoslari o'rganiladi. Maqolada qadriyatlar tushunchasining ilk paydo bo'lishidan tortib zamonaviy ijtimoiy fanlar doirasida uning rivojlanishiga qadar bo'lgan davrlar qamrab olingan.*

***Kalit so'zlar.** Qadriyatlarning shakllanishi, Diniy qadriyatlar, Jamiyat va qadriyatlar, Ijtimoiy fanlar, Modernizm va postmodernizm, Tarixiy rivojlanish, Qadriyat tushunchasi, Falsafiy asoslar, Madaniyat va qadriyatlar, Ijtimoiy qadriyatlar, Qadriyatlar nazariyasi.*

История становления теории ценностей

***Абстрактный.** Данная статья посвящена анализу процесса развития теории ценностей и этапов ее исторического становления. Он изучает философские, социальные и культурные аспекты понятия ценности, а также научные основы теории ценностей. В статье рассматриваются периоды от*



первого появления понятия ценности до его развития в рамках современных социальных наук.

Ключевые слова: *Формирование ценностей, Религиозные ценности, Общество и ценности. Социальные науки, Модернизм и постмодернизм, Историческое развитие, Концепция ценности, Философские основы, Культура и ценности, Социальные ценности, Теория ценностей.*

The history of the formation of the theory of values

Abstract. *This article is devoted to the analysis of the development process of the theory of values and the stages of its historical formation. It studies the philosophical, social and cultural aspects of the concept of value, as well as the scientific basis of the theory of values. The article covers the periods from the first appearance of the concept of values to its development within the framework of modern social sciences.*

Key words. *Formation of values, Religious values, Society and values, Social sciences, Modernism and postmodernism, Historical development, Concept of value, Philosophical foundations, Culture and values, Social values, Theory of values.*

Kirish. *Insoniyat tarixida qadriyatlar tushunchasi har doim muhim o‘rin egallab kelgan. Qadriyatlar jamiyat a‘zolarining dunyoqarashi, xulq-atvori va kundalik hayotdagi qarorlarini shakllantiruvchi asosiy mezonlardan biridir. Har bir davr va madaniyat o‘ziga xos qadriyatlar tizimiga ega bo‘lib, ular jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatgan. Qadriyatlar nazariyasi bu tushunchaning mohiyatini ilmiy asosda tahlil qilish va uning jamiyatdagi rolini aniqlashga qaratilgan muhim yo‘nalishdir. Ushbu nazariyaning shakllanishi va rivojlanishi turli davrlardagi falsafiy va ijtimoiy qarashlarning ta‘siri ostida sodir bo‘lgan. Ayniqsa, XIX-XX asrlarda Emil Dyurkgeym, Maks Veber va Shpranger kabi mutafakkirlar qadriyatlar nazariyasining ilmiy asoslarini*



yaratishda katta hissa qo'shgan. Qadriyatlar nazariyasi, insoniyat tarixida yuzaga kelgan falsafiy va ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynagan sohalardan biridir. U insonlarning hayotiy qadriyatlari, axloqiy normalari, e'tiqodlari va dunyoqarashlarini tahlil qiladi. Ushbu nazariya shakllanishi, tarixiy davrlar davomida ijtimoiy, madaniy va falsafiy jarayonlarning ta'siri ostida rivojlangan. Qadriyatlar nazariyasi insoniyat tarixining har bir bosqichida o'zgarib, rivojlanib kelgan. U falsafiy, diniy va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanib, turli davrlar va madaniyatlarda turli xil yondashuvlar bilan o'z ifodasini topgan. Zamonaviy qadriyatlar nazariyasi, global va lokal omillarni hisobga olgan holda, insonning ijtimoiy va axloqiy hayotini yaxshilashga qaratilgan yangi yondashuvlarni taklif etmoqda. Qadriyat aksiologik tushuncha bo'lib, inson, insonlar guruhi va umuman insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan narsa, hodisa, norma jarayon va munosabatlarni ifoda etadi. «Ahamiyatlilik va foydalilik qadriyatlarining darajasini belgilovchi nisbiy tomonlaridir. Narsa va hodisalar, shu jumladan sotsial hodisalarning qadriyatli yoki qadriyatsizligini aniqlash muayyan davrga inson va insonlar guruhi manfaatlarini doirasida amalga oshadi. Demak, o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, qadriyatlar inson va biron-bir ijtimoiy tuzum, kashilarning muayyan birligi uchun nisbiy xarakterga egadir. Qadriyatlar ontologik xarakteriga ko'ra tabiiy va sotsial qadriyatlarga ham bo'linadi. Suv yoki toza havo inson uchun tabiiy qadriyatdir. Ular inson tomonidan ishlov berilib yaratilmagan. Sotsial qadriyatlarining jamiyat ichida uning taraqqiyoti davomida yuzaga keladi va amal qiladi. Madaniy qadriyatlar sotsial qadriyatlarining tarkibiy qism sifatida faqatgina inson tomonidan ishlov berilgan sotsial buyum, hodisa va munosabatlarni o'z ichiga oladi. Biron o'simlik yoki qo'y biologik hodisa sifatida tabiatniki. Lekin ular inson tomonidan ishlov berilgandan so'ng madaniy hodisalarga madaniy o'simlik va uy hayvoniga, shu jumladan madaniy qadriyatlarga aylanadi. Bu jarayon saqlash voqelikka xosdir. Demak, insonning o'zi ham ishlov berish mahsuli sifatida madaniy qadriyatdir. Sotsial qadriyatlar ichida shunday tamon, element va munosabatlar



ham borki, ular inson tomonidan hevosita ishlov berish natijalari emas. Ulaming yuzaga kelishi insonga nisbatan olsak, bevosita shartlangandir. O'z-o'zidan ravshanki sotsial qadriyatlar madaniy va madaniy bo'lmagan qadriyatlarga ham bo'linadi. Yuqorida qadriyatlarni belgilash nisbiy xarakterga ega, degan fikr madaniy qadriyatlarga ham tegishlidir. Chunki ayni vaqtda biron-bir xalq uchun qadriyatli bo'lgan urf-odat boshqa xalqlar uchun ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Yoki har bir xalqning uzoq o'tmishda qadri bo'lgan sotsial norma hozirgi daviga kelib shunchaki madaniy yodgorlik, hatto konservativ xarakterda bo'lishi mumkin. Shuningdek uzoq o'tmishda yuzaga kelib, hozirda ham nafaqat doimiy milliy, balki doimiy umuminsoniy qadriyatlar ham mavjuddir. Har qanday qadriyatlar singari madaniy qadriyatlarni bilishning yoki ularning sifatini aniqlashdir. Marksistik adabiyotlarda narsa va hodisalari yig'indisi orqali bilinadi, deb tavsif berilgan. Bunda gap shunchaki mexanik tarzda xossalar yig'indisi ustida enas, balki bir-biri bilan dialektik tarzda bog'langan xossalar haqida bormoqda. Xossalar sifatning muayyan tamonlari tariqasida ob'ekming boshqa ob'ektga o'zaro munosabatida namoyon bo'ladi. Ushbu masalada M.Hasanovning fikrlari qimmatlidir. Strukturaning murakkablashishi uning funktsiyalarining murakkablashishiga olib keladi. Demak, madaniy voqelikni funktsiyanal aspektda o'rganish, ularning xossalariga oid jarayonlarni bilishga asoslanadi. Madaniy bordiqning xossalarini aniqlash esa uning tarkibiy qismi madaniy qadriyatlarni aniqlash-madaniyat nazariyasi va tarixining asosiy masalasidir. Bu siz ushbu fan amaliyotdan ajralgan, quruq nazaryaga aylanib qoladi. Uzoq yillar davomida falsafiy adabiyotlarda, falsafa darsliklarida qadriyat tushunchasiga umuman e'tibor beriladi. Hozirgi davida kundalik hayotimizda kinb kelayotgan, inson ma'naviy kamoloti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan, hamda yangi ma'no, mazmun kasb etayotgan falsafiy tushunchalardan biridir. Qadriyat arabcha so'z bo'lib, qadr-andozi, o'lchov, me'yor degan ma'noni anglatadi. Falsafiy ma'noda qadriyat tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan, odamlar tomonidan qadrlanadigan, ular uchun foydali,



ahamiyatli, moddiy iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, mavkumviy, siyosiy, huquqiy, diniy, milliy, ijtimoiy omillar yig'indisi bo'lib hisoblanadi. Qadriyatlar tushunchasi qadr-qimmat degan ma'noni anglatadi. Oddiy qilib shuni aytish keraki, qadriyat iborasining mazmuni juda sodda bo'lib, uning etimologik mazmuniga xosdir. Qadriyatlar odamlar qaddaydigan narsalardir. Bular atrofimizdagi predmetlar, narsa va hodisalar, voqealar bo'lib, odamlarning kundalik hayony ehtiyojlan va talablanini qəndin oladigan yoki qondirishi mumkin bo'lgan narsalardir.

Umuman olganda qadriyatlar deyilganda faqat o'tmish davr uchun muhiy ahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi kun va kelajakdagi taraqqiyotga ham ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kash etadigan moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar majmuasi tushuniladi. Har qanday qadriyat inson faoliyatining mahsuli, uning ob'ektiv olamga bo'lgan munosabatining ifodasidir. Qadriyatlar jamiyat ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotining mahsulidir. Har bir qadriyat muayan bir davr, sharoit va ehtiyojning mahsulidir. Qadriyatlar falsafiy tazariyasining bazi masalalari, o'tgan XIX asming ikkinchi yarmida Evropada yangi kantchilik maktabiga mansub V. Vindelband. G. Rikart sa boshqalar tomonidan ishlab chiqildi. Qadriyat nazariyasini o'rganish yomoncha qimmatbaho manosini anglatuvchi aksiologiya degan ilm sohasini vujudga keltiradi. XIX asming 20-50 yillarida M. Sheler, N. Gartman, R.B. Perú, SP. Popper kabi nemis va amerika faylasuflarining asarlarida bu fanning asoslari shakllantirildi. Sharqda avlod va ajdodlarimiz tomonidan yaratgan qadrlash mezonlarining tarixi eng qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat dostonlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodi ramunalariga borib taqaladi. Spitamen, Muqanna va Jaloliddin Manguberdi to'grisidagi asarlarda, alpomish, To maris va Shiroq to'grisidagi afsona va dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoyillik kabi ko'plab umuminsoniy qadriyatlar tasvidangan. Ma'naviy



merosimizning yonʻin namunasi Avesto» zardushtiylikning muqaddas kitobi boʻlganligidan unda bu dinning qadnyatlar tizimi, qadrlash meronlari, oʻsha davrdagi milliy gʻoyalar yorqin ifodalangan. Qadrlash toʻgrisidagi qarashlar VIII-XII asrlarda Qurʻon va hadislarda taʻriflab berilgan ilohiy qadriyat va qadrlash masalalari xalqimiz tarixi va madaniyatiga taʻsir koʻrsatgan. sivilizatsiyamiz qadriyatlari va xalqimizga xos qadrlash meʼyorlari musulmon shaqi va arablar dunyosi madaniyatining rivojiga ham katta taʻsir koʻrsatgan. Tarixda nomlan saqlangan allomalarimiz oʻz navbatida butun jahon, shany madaniyatiga hissa qoʻshganlar Abu Hanifa, Al Buhoriy, At Termiziy, Kubro, Ahmad Yassaviy, Naqshband kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari toʻgʻrisida ham aytish joiz. Bundan tashqari atoqli qomumiy olimlar Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, al Fargʻoniy kabi sivilizatsiyamizning zabardast namoyondalarn ijodi va merosi koʻzguna yanada yaqqolroq namoyon boʻladi. Shu bilan birga, umuminsoniy madaniyatning durdonalarini yaratgan Ulugʻbek, Lutfiy, Navoiy, Bobur labi zotlaming jahon sivilizatsiyasiga qoʻshgan xizmatlan muhimdir

1. Qadriyatlar nazariyasining dastlabki bosqichlari. Qadriyatlar haqidagi dastlabki tasavvurlar qadimgi falsafiy maktablarda, ayniqsa, Gretsiya va Rim falsafasida mavjud boʻlgan. Pifagor, Sokrat, Platon va Aristotel kabi faylasuflar axloqiy qadriyatlar, adolat, yaxshilik va goʻzallik kabi tushunchalarni muhokama qilganlar. Ular qadriyatlarni insonning aqliy va ruhiy holati bilan bogʻlashgan va ijtimoiy tizimda ahamiyatli oʻrin tutgan. Platonning "Davlat" asarida, ideal jamiyatda qanday qadriyatlar ustuvor boʻlishi kerakligi haqida keng qamrovli fikrlar mavjud. Aristotel esa, "Nikomax axloqi" da axloqiy fazilatlarni va insonning baxtiga erishish uchun kerakli qadriyatlarni taʻriflagan. U, qadriyatlarni tabiat va aql bilan bogʻlagan va ularni har bir insonning baxti uchun zarur deb hisoblagan.

2. Oʻrta asrlar va diniy taʻsirlar. Oʻrta asrlarda qadriyatlar nazariyasiga diniy nuqtai nazar hukmronlik qilgan. Xristianlik, islom va boshqa diniy anʻanalar axloqiy



qadriyatlarni shakllantirishda asosiy manba bo'ldi. Xristianlikda sevgi, sabr, mehr-shafqat va adolat kabi qadriyatlar markaziy o'rin tutgan bo'lsa, islomda ham imon, ijtimoiy adolat, mehr-oqibat kabi tushunchalar e'tiborga olinadi. Bu davrda diniy tafakkur qadriyatlarni ilohiy buyruqlar va axloqiy normalar orqali shakllantirdi.

3. Yangi davr va odamning o'z qadriyatlarini aniqlash. Renesans davri va Yevropada Yangi davr boshlanishi bilan qadriyatlar nazariyasi yangi yo'nalishlarga yuzlandi. Insoniyatning o'ziga xosligini, erkinligini va aqlini qadrlash bosqichi boshlandi. Renesansda insonning dunyoviy qadriyatlari, erkinlik, ilm-fan, san'at va estetik go'zallik kabi tushunchalar o'sdi. Bu davrda falsafiy tafakkurda individualizm, inson huquqlari va erkinlikka e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, XVIII asrda yangi falsafiy oqimlar, masalan, utilitarizm va deontologiya, qadriyatlarni insonning ijtimoiy hayoti bilan bog'lashga intildi. Utilitarizm, Jeremy Bentham va Jon Styuart Mill kabi faylasuflar tomonidan ilgari surilgan, inson baxtini eng ko'p odamlar uchun maksimal darajada oshirishni maqsad qilgan qadriyatlar tizimini yaratdi. Deontologiya esa, Immanuil Kant tomonidan ishlab chiqilgan, axloqiy qarorlar va harakatlarning axloqiy me'yorlarga asoslanishini ta'kidlaydi

4. Zamonaviy qadriyatlar nazariyasi. XX asr va XXI asrda qadriyatlar nazariyasi yanada murakkablashdi. Falsafada postmodernizm, ekzistensializm va feminist fikrlash kabi oqimlar qadriyatlar haqida yangi yondashuvlarni ishlab chiqdi. Postmodernizm qadriyatlarning subyektivligini va turli madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni tan oldi. Ekzistensializm esa, insonning erkin irodasi va o'z qadriyatlarini yaratish imkoniyatiga urg'u berdi. Bugungi kunda qadriyatlar nazariyasi, globalizatsiya, ijtimoiy tarmoqlar va madaniy diversifikatsiya kabi omillar bilan yanada murakkablashgan. Har bir jamiyat va individ o'z qadriyatlarini shakllantirishda turli ta'sirlarga duch keladi, bu esa qadriyatlar nazariyasining yangi muammolarini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, qadriyatlar o'zgaruvchan



va dinamik jarayon sifatida qaralmoqda, chunki global miqyosda odamlarning axloqiy, madaniy va diniy qarashlari o'zgarib bormoqda.

Xulosa. Qadriyatlar nazariyasi insoniyat tarixining har bir bosqichida o'zgarib, rivojlanib kelgan. U falsafiy, diniy va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanib, turli davrlar va madaniyatlarda turli xil yondashuvlar bilan o'z ifodasini topgan. Zamonaviy qadriyatlar nazariyasi, global va lokal omillarni hisobga olgan holda, insonning ijtimoiy va axloqiy hayotini yaxshilashga qaratilgan yangi yondashuvlarni taklif etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., 2003.
3. Karimov I.A. Bizning maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdit. T., 2005.
4. Karimov I.A. "Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayotmaqsadimiz". T., 2000, 3-9, 19-22-betlar.